

TALABALARNING TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIDA INTELLEKTUAL SALOHİYATNING AHAMIYATI

Raximov Baxtiyor Xudoyberdiyevich – *pedagogika fanlari doktori, professor*

b.raximov1707@gmail.com

Guliston davlat universiteti

ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ В ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Рахимов Бахтиёр Худойбердиевич – *доктор педагогических наук, профессор*

Гулистанский государственный университет

THE IMPORTANCE OF STUDENTS' INTELLECTUAL POTENTIAL IN RESEARCH

Rakhimov Bakhtiyor Khudoyberdievich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

Gulistan State University

Tayanch soʻzlar: boʻlajak oʻqituvchisi, intellekt, intellektual rivojlantirish psixologik jarayon.

Rezyume. Ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishda talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasi barcha bosqichlarida psixolog olimlarning diqqat markazida boʻlib kelgan, boʻlajak oʻqituvchilarda ilmiy tadqiqotchilikka oid intellektni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari ilmiy nazariy jihatdan asoslangan. Shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, koʻnikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon boʻladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar ekanligi ilmiy tahlil etilgan.

Ключевые слова: будущий учитель, интеллект, психологический процесс интеллектуального развития.

Резюме. Вопрос развития интеллектуального потенциала студентов при организации научно-исследовательской работы был в центре внимания ученых-психологов на всех этапах, психологические особенности развития интеллекта при проведении научных исследований у будущих педагогов носят научно-теоретический характер. рассмотренным условием успешного осуществления деятельности индивида, был проведен научный анализ того, что индивидуально-психологической характеристикой, проявляющейся в различиях, возникающих в динамике приобретения знаний, навыков и умений, являются способности.

Key words: future teacher, intellect, intellectual development psychological process.

Summary. The issue of developing the intellectual potential of students in the organization of scientific research work has been the focus of psychologist scientists at all stages, the psychological features of the development of intelligence on scientific research in future teachers are scientifically theoretical. Considered a condition for the successful implementation of the activities of an individual, a scientific analysis has been carried out that the individual psychological characteristic manifested in the differences that arise in the dynamics of acquiring knowledge, skills and abilities are abilities.

Kirish. Fan va jamiyat taraqqiyoti talaba intellektini rivojlantirishning yangicha yondashuvlarini talab etmoqda va yanada dolzarb psixologik muammolardan biriga aylantirmoqda.

Xozirgi globallashuv davrida har qanday jamiyat barkamol va intellektual salohiyatli yoshlarni shakllanishini talab etadi, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisidagi Farmonining 3-§-da oliy taʼlim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, ... oliy taʼlim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish boʻyicha tadbirlar amalga oshirilishi qayd etilgan [1].

Bu borada soʻnggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi Oʻzbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-maʼrifiy asoslari yaratilib tashkil etilib, yoshlarga keng imkoniyatlar yoʻli ochildi [2].

Kreativ fikrlash ijodiy muhitining rivojlanishi talaba-yoshlarning faolligini oshirishning muhim omilidir. Talaba yoshlarning faolligini kuchaytirishda amiyatning intellektual, ijtimoiy va madaniy yuksalishi, eng avvalo, maʼnaviy barkamol, masʼuliyatli, vatanparvar va mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishga bogʻliq. Shu sababli

taʼlim jarayonida ilmiy-texnik bilimlar bilan bir qatorda Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu boradagi oʻzining “Yuksak maʼnaviyat-engilmas kuch asarida fikrlarini davom ettirib, maʼnaviy tahdid va xurujlarga qarshi kurashda “... fikrga qarshi fikr, gʻoyaga qarshi gʻoya, jaholatga qarshi maʼrifat bilan kurashish har qachongidan koʻra muhim ahamiyat kasb etmayotganini taʼkidlab oʻtgan [3].

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan xolda, davlatning taraqqiyoti yosh avlodining intellektual salohiyati va fuqarolik masʼuliyatiga bogʻliqdir. Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot konsepsiyasida talaba-yoshlar jamiyatning muhim ijtimoiy qatlamlaridan biri sifatida eʼtirof etilisi shundan dalolatdir.

Bugungi kunda yoshlar mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylanib, amalda “talaba – bilim oluvchi emas, balki jamiyat quruvchi kuch” degan yondashuvga asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Yoshlarning startap loyihalariga jalb qilinishi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki intellektual kapitalning shakllanishida ham muhim omil boʻlib xizmat qilmoqda hamda talabalar tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy ishlanmalar xalqaro miqyosdagi tanlovlarda eʼtirof etilmoqda [4]

Yangi Oʻzbekiston taraqqiyoti taʼlim-tarbiyaning yangi modeliga, intellektual salohiyatga ega yoshlar avlodining shakllanishiga tayanadi. Talaba-yoshlarning tafakkuri, intellektual va ijodiy salohiyati kuchaysa mamlakatning global maydondagi raqobatbardoshligi ham ortadi.

Intellektni kelib chiqishi va rivojlanishi olimlarining turli xil qarashlari, nazariyalari, modellari orqali tadqiq etilgan bo'lsada Yangi O'zbekistonda intellekt va ijodning bevosita shaxsning ijodiy harakatlariga ta'siri ham munozarali masala bo'lib qolmoqda. Boshqa tomondan, ijod turli his-tuyg'ularni ifodalash bilan bog'liq ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi [5].

Shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi. Ushbu xususiyatni aniqlash uchun ba'zi bir omillarni tahlil qilish maqsadga muvofiq;

a) shaxsning muayyan sifatleri yig'indisi belgilangan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati mavjuddir;

b) inson shunday holatlarda faoliyat talabiga javob bera olmasa, psixologik sifatlar, ya'ni qobiliyatlar zayıfdir. Lekin bunday xususiyatli shaxs ko'nikma va malakalarni egallay olmaydi, degan ma'no anglatmaydi, biroq ularni egallash vaqti cho'zilib ketadi, xolos [6].

Fan va texnika va texnologiyalar taraqqiyoti natijasida insonlarning fikrlash doirasi ham o'sib boradi. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida ham inson qadrini ulug'lash, shaxs kamolati, rivoji, shaxs va jamiyat manfaatlarining o'zaro uyg'unlashuvi jarayoniga muhim qadriyat sifatida qarab, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, ilmiy va intellectual salohiyatga ega kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko'tarish masalasini ustuvor soha sifatida belgilangan. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida belgilanishicha, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda ham mustaqil fikrga ega, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, puxta o'ylangan tizim asosida tashkil etish lozim [1, 2, 3].

Oliy ta'lim tizimida ilmiy dunyoqarashga ega talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga maqsadli jalb etishning katta ahamiyatga ega ekanligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan [4].

Yangilangan ta'lim-tarbiya tizimi va pedagogik tafakkur talaba-yoshlar oldiga yangi jamiyat talablariga mos, zamonaviy vazifalarni qo'yimoqda [2].

Talaba-yoshlarning faoliyati va kasb sifatleri bilan bog'liq jihatlar bir qator olimlarning tadqiqotlari, ilmiy asar va monografiyalarda o'z ifodasini topgan. Yoshlar egallashi zarur bo'lgan kasb sifatleri haqida turli qarashlar mavjud. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda ham talaba-yoshlar faoliyatining muhim qirralari talqin qilinmoqda. Talabalarda shakllantirilishi zarur bo'lgan kasb sifatlarini mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida tarkib topirishni nazarda tutgan ishlar ham talaygina [3].

Biroq oliy ta'limda shaxsga xos fazilatlarini shakllantirish, talaba intellekti pedagogik mahoratni oshirishga yo'naltirilgan o'quv fanlari uchun ajratilgan mashg'ulotlar soatlari juda kam. Jumladan, universitet ta'limi o'quv rejasida (2024-2025) (2025-2026) yillar "Umumiy psixologiya" fani uchun atigi 60 soat vaqt ajratilgan bo'lib, bu miqdordagi o'quv soatlari hajmida dars mazmunini amaliyot bilan tadqiqotchilik faoliyatiga bog'lashdan tashqari, talabalarda ilmiy tadqiqotchilik

sifatlarini shakllantirish ham amalga oshirilishi lozim. Chunki psixologik bilimga, mutaxassislik fanlarning psixologik asoslarini keyingi faoliyat uchun zarur jihatlarini o'zlashtirmagan bo'lg'usi mutaxassis o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida yuqori darajadagi ilmiy salohiyatga erisha olmaydi. Shuning uchun mazkur o'quv fanlarining soatlar miqdorini oshirish bo'lg'usi o'qituvchilarni har jihatdan, jumladan, ijodkorlik nuqtai nazaridan puxta tayyorlash imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchi-talabalarda mutaxassislik nuqtai nazaridan tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarini shakllantirishda quyidagi umumiy talablar va qoidalarga amal qilish zarur:

- bo'lajak o'qituvchining tarbiyalanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi namunali bo'lishi, puxta kasb-korlik xususiyatlariga ega bo'lishi bilan birga ilmiy-ijodiy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Chunki yaxshi tarbiyalanmagan, tafakkur doirasi, ilmiy dunyoqarashi tor, puxta ma'lumot, kasb malakasiga ega bo'lmagan o'qituvchi o'quvchilarni tarbiyalashi, ongini rivojlantirishi, ma'lumotli qilishi mumkin emas;

- har qanday bo'lg'usi pedagog-talaba o'zi egallagan bilim va ma'lumot, kasb mahorati doirasidagina kelajakda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya, bilim va ma'lumot berish imkoniyatiga ega. Negaki, puxta ma'lumot va chuqur bilimga ega barkamol insonlargina mutaxassis sifatida ma'lumotli, ilmiy bilimlar bilan qurollangan, yuksak ilmiy salohiyatga ega yosh avlodni shakllantira oladi [4, 5, 6, 7, 8, 9].

Metodlar. Bo'lg'usi o'qituvchida shakllantiriladigan tajriba va metodik mahorat o'ziga xos ahamiyatga ega. Chunki o'qituvchi ta'limning maqsadini asosan mashg'ulotlar, ularning samarali usullaridan foydalanish orqali amalga oshiradi. Biroq har doim ham darslardan ko'zlangan maqsadga har qanday samarador usullar va dars shakllari bilan ham erisholmaslik mumkin. Chunki ta'limda zamonaviy o'qitishni qanday o'qituvchi amalga oshirishi ham muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotning turli usullaridan muvaffaqiyatli foydalanish quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

1. Dars mavzusining ilmiy jihatdan asoslab berilishi.
2. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha dars materiallarining barcha didaktik talablarga javob berishi.
3. Darsni loyihalashtirishda o'quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlarining hisobga olinishi.
4. Bo'lajak o'qituvchining e'tibori ilm-fan sohasidagi yangiliklarga qaratilgan bo'lishi.
5. Bolalar tabiatiga xos xususiyatlarni yaxshi bilishi.
6. O'zi o'qitadigan fan asoslarini chuqur bilishi, undagi ilmiy yangiliklarni tahlil qila olishi.
7. O'qitishning o'ziga xos jihatlarini bilishi.
8. O'qitishning yangi metod va texnologiyalarini ijodiy o'zlashtirganligi.

Bo'lajak o'qituvchining ilmiy-amaliy salohiyati o'quv topshiriqlarini o'quvchilar guruhiga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda taqdim etish texnologiyasini o'zlashtirishi bilan belgilanadi. Zamonaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ham har bir talabani mustaqil ilmiy fikrlashga odatlantirishdir. Talaba-yoshlarning o'ziga xos jihatlarini bilmasdan, ularning nimalarga qodirligini sezmasdan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Har qanday metod samaradorligi talabalar guruhini puxta bilishga bog'liq. Shuning uchun ham

zamonaviy o'qituvchida muhim kasb sifatlarini shakllantirish ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omillardan biridir [7].

Talaba-yoshlar egallashi zarur bo'lgan bir qator kasbiy sifatlar borki, ular kelgusida yoshlarning o'qituvchilik faoliyatida o'z ifodasini topmasa, darslar ayrim jihatlari bilan samarasiz bo'lib qolaveradi. Chunki o'qituvchining har bir kasb sifati samarali natijalarga erishishni ta'minlashi va o'quvchining u yoki bu darajada rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi kerak. Shuning uchun ham o'qituvchi oldida turgan kasbiy-pedagogik talablar quyidagi muhim kasb sifatlarida o'z ifodasini topadi [8].

Ilmiy-ijodkorlik. O'qituvchi - ilmiy haqiqatlar, yangiliklarga asoslanib ish ko'radigan mutaxassis. Oliy maktab bo'lajak o'qituvchini ijodkorlikka, olamga faqat sog'lom istiqbolli nigoh bilan qaray olishga o'rgatishi kerak.

O'qituvchining ijodkorligi o'quvchining ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, badiiy va estetik didini tarkib toptirish, sog'lom ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, og'zaki va yozma nutq mahoratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'ziga xoslik, boshqalarga o'xshamaslik, metodik kashfiyot qilish har bir o'qituvchining tabiiy ehtiyojiga aylangandagina darslarning samaradorligi yanada yuqori bo'ladi.

Tashkilotchilik. O'qituvchi tashkilotchilik sifatiga ham ega bo'lishi kerakki, busiz u o'z atrofida jipslashgan o'quvchilar jamoasini do'stona mustahkam jamoa etib shakllantira olmaydi. Bir butun jamoani bir joyga jamlab, tartib va intizomga tayanadigan talabalar jamoasiga aylantirish, ularda ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish, shaxslik sifatlarini qaror toptirish oliy o'quv yurti o'qituvchisidan sermashaqqat, zahmatli mehnat talab qiladi.

Talaba shaxsiy fikr-mulohazalarini jamoa bilan baham ko'rishga intilishi, boshqalar fikrini eshitishga odatlanishi, o'z mulohazalarini asosli ifodalashga o'rganishi ilmiy tadqiqot samaradorligini keskin oshiradi. Agar talaba jamoadan qochsa, yolg'izlikka odatlansa, do'stlaridan uzoqlashsa, darsda va turli tadbirlarda faol qatnashmasa, guruhda bor-yoqligi sezilmasa, bu hol o'qituvchida ijtimoiy-tashkilotchilik faoliyatining yetarlicha rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

Guruhdagi talabalar do'stona jamoaga birlashgan joyda darslar qiziqarli, mazmunli tashkil qilinadi. Talabalarni o'ziga jalb eta olmagan, o'zining fazilatlarini, mahorati, bilimdonligi bilan ularga namuna bo'la olmaydigan o'qituvchi tashkilotchilik qila olmaydi va talabalarni ilmiy faoliyatga yo'naltira olmaydi. Chunki bunday o'qituvchilarga talabalar ergashmaydilar va unga havas qilmaydilar. Ustoz bolalarni sevadigan, ulardan vaqtini, bilimni ayamaydigan, ularga intilgan, hamfikir-do'stiga aylangandagina talabalar jamoasini birlashtira olishi mumkin.

Pedagog mahoratining muhim ko'rsatkichlaridan yana biri o'quvchilar qalbiga kirib borish va ular o'rtasida mustahkam jamoa yaratishdan iborat. Talaba-yoshlar faoliyatining muhim qirralaridan biri esa, ularning tadqiqotchiligidir. Talabalar oliy maktabda ilmiy maqolalar, referatlar, diplom ishlari yozish, ilmiy anjumanlarga ishtirok etish, ilmiy tahlilni amalga oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar mobaynida tadqiqotchilikka o'rganadilar.

Ilmiy tadqiqotchilik. Talabalarning bu intellektual jihati mashg'ulotlarga tayyorlanish va ilmiy izlanishlari jarayonida namoyon bo'ladi. Ilmiy tadqiqotchilik talabani puxta va aniq ilmiy qarashlarga egaligi, fikriy mustaqilligini ta'minlash bilan birga o'ziga xos ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarga ham ega.

Oliy maktabni bitirgan aksariyat yosh pedagog-mutaxassislarda uchraydigan bir xil kamchilik shundan iboratki, ularda ilmiy, ijodiy, tadqiqotchilik faoliyati sezilmaydi. Darslarning sifati va samaradorligi o'qituvchining izlanuvchanligi, tadqiqotchiligi, ilmiy, ijodiy faoliyatining doimiyliigi va uzluksizligi bilan bog'liq.

Bundan tashqari, o'qituvchi oliy maktabda o'zlashtirgan barcha nazariy bilimlari, pedagogika va psixologiyaga oid ma'lumotlarini amaliy faoliyat jarayonida qo'llay olish malakasini egallashi lozim.

Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligiga e'tibor qaratish. O'qituvchining pedagogik amaliyotchilik faoliyati tadqiqotchilik faoliyatiga birmuncha yaqin. Chunki o'qituvchi ilmiy izlanishlar jarayonida olgan nazariya va metodikaga oid bilimlarini amalda qo'llashga harakat qiladi. O'qituvchidan yangi bilimlarini o'quvchilar ongiga yetkazish uchun pedagogik amaliyotchilik xususiyati talab etiladi.

O'qituvchi o'zining bor iqtidori, ilmiy va malakasini amaliyotda namoyon qiladi. Amaliyot davomida uning kasbiy mahorati sayqal topadi. O'qituvchi darsning yangi shakllari, noan'anaviy usullarini tajribada sinab ko'ruvchi vazifasini bajaradi. O'z amaliyotida bugunning talablariga javob bera oladigan usullardan foydalanadi. Muvaffaqiyat qozongan, o'quvchilar faolligini oshiradigan, ijodiy fikrlashga o'rgatadigan, tarbiyaviy ta'sir darajasi yuqori bo'lgan shakllardan foydalanishga harakat qiladi. O'qituvchi mashg'ulot uchun zarur axborot, ma'lumot va ashyolarni to'playdi hamda ularni qanday qilib, qaysi shaklda o'quvchilarga yetkazish yo'llarini oldindan belgilab oladi. O'qituvchi pedagogik amaliyotchiligi va tarbiyaviy vazifani bajarishi zarurligini aslo unutmasligi zarur. Chunki o'qituvchi o'z mashg'ulotlarida bilim beruvchigina emas, avvalo, shu bilimlar asosida talabalarni tarbiyalashni ko'zda tutgan tarbiyaning natijalarini shogirdi xatti-harakati, faoliyatida namoyon bo'lishini kuzatadigan amaliyotchidir.

Pedagogik bilimlarni amaliyotga samarali tatbiq eta olish qobiliyati o'quv materialini tanlash va yaxlit tizimga keltirish, tadqiqot davomida o'quvchi va o'zining faoliyati yo'nalishini belgilash, mashg'ulot uchun nimalardan foydalanish, xulosalarda qanday badiiy matnlarni keltirish yoki tahlillash kerakligini ham belgilab beradi. Demak, talabani **pedagogik bilimlarini amaliyotga samarali tatbiq eta olish qobiliyati** doimo rivojlanib, o'zgarib boruvchi hodisadir.

Natijalar. Xulosa shuki, oliy maktab ta'lim tizimi talabani tashkilotchilik, amaliyotchilik, tadqiqotchilik, ijodkorlik kabi barcha zarur kasb sifatlarini kerakli darajada shakllantirishni ta'minlashi lozim. Oliy maktabni bitirgan yosh mutaxassis muayyan ilmiy dunyoqarashga ega, lekin uni amaliyotga qanday tatbiq etish masalasida ancha nochor. Chunki talabalarni metodik jihatdan tayyorlash talab darajasida emas. Pedagogika va psixologiya fanlarida talabalarni ilmiy tadqiqotchilikka yo'naltirishning o'ziga xos xususiyatlari belgilab berilmagan. Holbuki, talaba ilmiy tadqiqotchilik qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirishi zarur. Bu fanlar o'qituvchilarni har qanday vaziyatda ish ko'ra

oladigan malakali mutaxassisga aylantirishni taqozo etadi. Negaki, jamiyat a'zolarining ma'naviy kamoloti ilmiy dunyoqarashlarining darajasiga bog'liq [7, 8, 9].

Psixologlarning fikricha, OTM o'qituvchisi va talaba o'rtasida yaqin munosabat sezilarli darajada kam foyizni tashkil etadi. Mashg'ulot olib boradigan ustozlar har bir talaba haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega emasligi, ular orasidagi munosabatlar faqat majburiyat yuzasidan ekanligi bo'lajak o'qituvchi-talabani mavjud jismoniy-ma'naviy imkoniyatlar darajasida tayyorlashga ham yo'l bermaydi. Maktabda o'qituvchining shaxsi o'quvchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Sababi bir-birini ancha yuqori darajada bilishga ustoz va shogirdning imkoniyatlari bor. Bir joyda yashaydilar, (ayniqsa, qishloq hududlarida) bir-birlari bilan darsdagina emas, kundalik ijtimoiy vaziyatlarda ham muloqotda bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchining oilasi, yashash sharoiti, atrofdagilar bilan o'zaro munosabatini yaxshi biladi va shunga mos holda muomala qiladi. Shu sababli o'qituvchi va o'quvchilar maktab, ko'cha, uy, jamoat joylarida ham mas'uliyatni his qiladilar. Har qadamda ustoz va shogird uchrashadilar, o'zaro munosabatda bo'ladilar. Shu yo'sinda ular bir-birining shaxsiy fazilatlarini nafaqat maktabda, ijtimoiy hayotning hamma jabhalarida o'rganib boradilar, o'quvchilar esa ustozdan o'rnatilgan oladilar [7].

OTM da talabalarining kasbiy va ma'naviy fazilatlarini o'quv jarayonida hamda auditoriyadan tashqarida o'tkaziladigan tadbirlarda shakllantirishni yo'lga qo'yish ham samarali natijalar berishi mumkin. Vaholanki, talabaning har bir xatti-harakatidan muassasa rahbari va o'qituvchilari xabardor bo'lishlari lozim.

Munozara. Bo'lajak o'qituvchining ma'naviy sifatlarini quyidagi tadbir va vositalar asosida tarkib toptirilishi, sayqallashtirilishi mumkin.

1. Shaxsiy ibrat, namuna bo'lish.
2. Talabalar jamoasining ma'lum tadqiqot muammolarini ilmiy maktabda maqsadli tadqiq etish uchun uyushgan faoliyatini tashkil etish.
3. Mashg'ulotlarda ilmiy anjuman elementlarini amalga oshirishga (rolli o'yonlar) alohida e'tibor qaratish.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-oktabr 2019-yildagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2022.
4. Jo'rayev M., Usmonov S. talaba yoshlar innovatsion faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: «Istiqlol», 2021.
5. Рахимов Б.Х. Психологические особенности развития интеллекта у будущих учителей <https://uzresearchers.com/index.php/IFTE23/article/view/37>
6. Rakhimov B.K. Theories of students'creative thinking development based on innovative approach. // American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, volume 3, issue 9, 2023. – P. 97-105
7. Рахимов Б., Нарзиева Н. Педагогик махорат. Дарслик. – Тошкент: «SamDCHTI», 2021.
8. Эльконин Б.Д. Введение в психологию развития. – Москва: «Тривола», 1994.
9. Foziyev E.T. Umumiy psixologiya. 2-tom. – Toshkent: «Universitet», 2002.

4. Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga samarali tatbiq etish.

5. Ilmiy tadbirlar uyushtirish va talabalarining keng, faol ishtirokini ta'minlash.

6. Talabalarining ilmiy markazlarini tashkil etish.

7. Taniqli kishilar ishtirokida ijodiy kechalar va turli mavzulardagi suhbatlar o'tkazish.

8. Talaba-yoshlarning ilmiy-ijodiy mehnatlarini rag'batlantirib borish.

9. Talaba-yoshlarning ilmiy-ijodiy faoliyat samaradorligiga darajasini aniqlash mezonlari asosida sinovlar, so'rovnomalar, anketalar, attestatsiyalar uyushtirish.

10. Har o'quv yili yakunida talabalarining ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalari darajasini aniqlash.

11. Mazkur jarayonning samaradorlik darajasini oshirish yo'llarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash.

Avvalo, mustaqil fikr yurita oladigan shaxs o'z-o'zini nazorat qila olish, o'z-o'zini taftish qilish, qo'yilgan maqsad yo'lidagi intilishlarini aniqlash va shunga qarab o'z-o'zini boshqara olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

An'anaviy pedagogikada ko'rsatilganidek, talabani tarbiyalash, o'qitish emas, uni o'z-o'zini tarbiyalaydigan, o'zi mustaqil izlanib, ilmiy bilimlarni egallaydigan darajaga olib chiqish lozim. Zamonaviy psixologik bilimlarning an'anaviy psixologiya fanidan farqli tomoni ham aynan mana shu yerda ko'zga tashlanadi. Yana muhim jihatlardan biri, ta'lim jarayonida «o'qituvchi-talaba» o'zaro faol, ya'ni «sub'ekt-sub'ekt» munosabatini o'rnatishidir.

Ruhiyati tetik, qalb tuyg'usi beorom, o'z imkoniyatlarini erkin namoyon etish istagi bor shaxs kirishimli, g'ayratli, fantaziyasi boy bo'lib, biror yangilik yaratish, izlanish va ijodga ehtiyojmand bo'ladi. Bu ehtiyoj uni ilmiy-ijodiy, faol harakatga undaydi, ma'naviy-kasbiy kamolot sari yetaklaydi. Ilmiy-ijodiy faoliyatni pedagogik tashxis qilish asosida talabaning ehtiyoji, intilishi, o'quv motivlari, salohiyati, saviyasi va bor iste'dodi o'qituvchi hamda talaba o'rtasidagi teng huquqlilik munosabatida namoyon bo'lishi o'z isbotini topadi.